IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

R. N. GULTEGINNING "IZTIROB" ASARIDA OBRAZLAR TAHLILI

Alisherova Sohibaxon

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada taniqli turk adibi R.Gunteginning"Iztirob" romanidagi obrazlar ko'lami, ularning ichki olamlaridagi o'zgarishlar, ruhiy kechinma, iztiroblari qalamga olinadi.

Kalit so'zlar

Asar,qahramonlar ruhiyati, badiiy psixiologizm, ayol obrazi, syujet ta'sviri.

R. Guntegin. Nafaqat turk dunyosi balki dunyo insonlari sevib mutola qiladigan "Choliqushi" ning yaratuvchisi. Feride barchamizga suyukli obraz, uning shijoati, mag'rurligi o'ziga yarashadigan erkaliklari hammamizga sevimlidir. U bizning ham erka va qaysar Choliqushimizga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu ijodkorning yana bir qaysarlikda, adolatta, mag'rurlik va ojarlikda Feridedan qolishmaydigan yana bir obrazi bor, bu uning Zahrosi. Zahro Gunteginning "Iztirob" asari bosh qahramoni. Bu asar ham adibning boshqa asarlaridan qolishmaydigan qilib yaratilgan. Ko'pchilik bu asar haqida eshitmagan bo'lishi mumkin, lekin bu asar obrazlar ko'lami bo'yicha "Choliqushi" asaridan qolishmaydi. Asar syujeti ham, voqealar rivoji ham insonni o'yga soluvchi, uning ichki dunyosida qotib qolgan tuyg'ularini jumbushka keltiruvchi hodisalar bilan to'la. "Iztirob" asari butun bir boshli psixiologizm ustiga qurilgan desak yanglishmaymiz, undagi voqialar ham, obrazlar va ular xarakteri ham bir- biriga mutanosib tarzzida yaratilgan. Borini boriday ko'ra olish yoki bizga noma'lum masalalar yuzasidan o'quvchi fikirlarini o'rtaga tashlashka majbur qiladi. Biz o'z-o'zidan bu asar va uning qahramonlari to'g'risida shaxsiy fikirlarimizni bildiramiz. Yo ularning yutuqlari yoki kamchiliklar ustida bosh qotiramiz.Odamlar qalbiga yaqin yozilgan Baddiy psixiologizm masalasida turk yozuvchilari ichida Guntegin vs uning asarlari yetakchi o'rinda turadi.Asarning mazmunida «har kim ham ko‘ringaniday emas» degan falsafa yotadi. Chindan ham shunday, chunki biz ko'rib turgan tanganing orqa tomoni bor ekanini ham unutmaslik kerak. Qachonki odamlar o'zlari bilmoxchi bo'lgan narsani uzoqdan eshitkanicha qabul qilaverar ekan, ular bor haqiqatni bo'y basti bilan ko'ra olishmaydi. Inson falsafasi ham shunday, u doim bilmagan yoki ko'ringan haqiqatlarga ishonishga o'rgangan, bu uning ruhiyatiga ham singib ketkan, bor haqiqat oshkor bo'lganda esa o'zini- o'zi ayiblaydi. "Kosh-ki edi vaqtida bilsam edi"degan afsus ma'nosidagi so'zlarni aytishadi.

Asarda voqialar rivoji va obrazlar ko'lami katta ahamiyatga ega. Bu asardagi obrazlar zanjiriga kelsak: Zahro- u asar bosh qahramoni, asarning barcha voqialari uning atrofida aylanadi. U ko'rinishidan barchadan va xatto hayotdan han alamzada obrazni gavdalantiradi. Zahro tabiatida siniqlik yo'q, u o'z iztiroblari, dard va alamlari hamda nafratini o'zining qattiqo'l ko'rinishi, mag'rur va qa'tiati ortida qoldiradi. U asarda kuchli ruhiyat sohibasi.Zahro – pragmatik, qattiqqo‘l, o‘z prinsiplariga sodiq maktab hodimi. U ham barchamiz kabi boshqalar unga dunyoni qanday o‘rgatishgan bo‘lsa, shunday ko‘radi. Buvisi va onasini juda yaxshi ko'rgan va qattiq bog'lanib

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

qolgan yosh Zahro boshiga tushkan barcha kulfatlar sababchisi deb o'z otasini biladi, uni baxtsizligi sababchisi deya topadi va undan bor vujudi bilan nafratlanadi. Ammo barcha haqiqatni bilgan Zahro o'zining shuncha yillardan buyon ishonib kelganlari aslida sarob ekanini biladi va butun dunyosi ostin-ustin bo'ladi.

Murshid – bir paytlar halol, o‘z ishini maromida bajarishga harakat qiladigan, insonparvar odam bo‘lgan. Hozir unday emas, aniqrog‘i oilasi uni nopok ishlarga boshlagan, o‘zining irodasi ojizlik qilgan. Yo'q, gap uning irodasi ustida emas. Balkim, ayolini chindan sevgan, uni qadrlagan, qaynionasini esa o'z onasi yo'qligi uchun uni tuqqan onasidanda ziyoda ko'rganidir. Hamma baxtsizliklar sababi ham ayni shu, balkim u ayoliga uning onasiga qattiqqo'lroq, talabchanroq bo'lganida, oilada tartibni saqlay olganida uning hayoti bir maromda ketkan va bunday ko'ngilsizliklar bo'lmagan bo'lardi.

Asarni o'qir ekanman Zahroga qo'shilib otasini yomonlay boshladim. Bu asar Zahroni iztiroblari haqidadir deb o'yladim. Hatto otasini o'lim to'shagida yotganini eshitib ham sovuqqonlik bilan borishni rad qilgani, otasiga bo'lgan cheksiz nafratimni uyg'otdi. Zahro otasini ko'rishga borish uchun rozi bo'lganini o'qib esa, unda nihoyat rahimdillik hissi uyg'ondi degan qarorga kelgandim (asarni so'ngi qismlarigacha Zahroda zarracha achinish, kechirish hissi yo'q edi, hayot va otasini "yuzaki" bilishi bunga sabab edi). Biroq, u otasining tobuti yonida turib ham undan nafratlanganini, u bilan so'ngi bor vidolashishni ham istamagani meni biroz achiqlantirdi. Unga otasidan qolgan yagona me'ros uning eski sandig'i-yu uning ichidagi armisoqdan qolgan buyumlar. Zahro ana shu sandiq ichidan butun ishongan haqiqatlarini yer bilan yakson qiluvchi sababni otasining kundaligini topib oladi. Bu kundalikda u bor haqiqatlardan ayon bo'ladi.Bir umr nafratlanib kelgan otasidan esa kechirim so'raydi, uning ruhi taskin topishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qilishini aytadi.

Asarni gavdalantiruvchi va to'ldiruvchi boshqa obrazlar ham bor. Bular :Zahroning buvisi Makbule xonim barcha ko'ngilsizliklarning boshi deyish ham mumkin. Ammo u asarda farosatli va yaxshi ayol deb ta'riflanadi. U o'z erining o'limiga sabab bo'lgan va qizining ham turmushi buzilishiga sababchi bo'lgan. Uning tubanligining yana bir asosi o'z hushtorini kuyovining uyiga oshpaz qilib ishka oladi , o'z foydasini ko'zlab hattoki kuyovidan ham nabiralaridan ham andisha qilmaydi. Uning ikki qizi Ruxsor va Zahroning onasi Mavedet. Ruxsor og'ir turmush va oila qiyinchiliklariga bardosh berolmay bu olamdan erta ko'z yumgan. Mevedet bilan Zahroning onasi Makbule xonimning erining dafn marosimi kuni tanishib qolishkan. Zahroning ham o'zidan uncha katta bo'lmagsn opasi Feriha bo'lib u hsm yoshligida o'ziga yarasha sabablar tufayli joniga qasd qilgan va bu dunyodan ko'z yumgan.

Asar qahramonlari har tomonlama ruhiy va badiiy pisixiologizm bilan tasvirlangan.Xulosa o'nida shuni aytishim mumkinki,ssarda dastlab ijobiy ko‘ringan qahramonlarni kitob oxirida yomon ko‘rib qolishingiz tabiiy. Asarni eng katta foydasi insonlarga nisbatan birdan hukm qilish yaxshi emasligini, natijaga qarab xulosa qilish emas, balki sabablarini ham o‘rganish kerakligini angladim.

REFERENS

1. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, *2*(6), 1104-1106.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

2. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO* , *2* (2), 777-785.
3. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, *2*(6), 848-853.
4. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
5. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING
6. MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational,
    a. natural and social sciences, 3(3), 1318-1322СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА
7. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – С383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
8. LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2

WORDLY
KNOWLEDGE